

## **FINIKIYA**

**Mahmudova Zulfiya Alimjanovna**

*Andijon Davlat pedagogika instituti*

*Ijtimoiy gumanitar fanlar kafedrasi o`qituvchisi*

**Abduxalilov Nodirjon Nuralijon o`g`li**

*Ijtimoiy gumanitar va san`at fakulteti 101-guruh talabasi*

**Annotatsiya:** Finikiya davlati, qadimgi O'rta er dengizi mintaqasida joylashgan bo'lib, savdo va dengiz navigatsiyasida katta ahamiyatga ega edi. Ushbu maqolada Finikiya tarixi, shahar-davlatlari, alifbo rivoji, madaniyat, san'at va xalqaro savdoda o'rni haqida ma'lumot beriladi. Finikiyaliklar, o'zlarining boy merosi bilan tarixda muhim iz qoldirdilar.

**Kalit so`z:** Finikiya, qadimgi savdo, dengiz flotlari, shahar-davlatlar, Tire, Sidon, Byblos, alifbo, madaniyat, san'at, iqtisodiyot, budda, purpura, xalqaro aloqalar, din, urfatlar, me'morchilik, tarix, xarita, qishloq xo'jaligi, koloniylar.

**Abstract:** The Phoenician state, located in the ancient Mediterranean region, was of great importance in trade and sea navigation. This article provides information on Phoenician history, city-states, development of the alphabet, culture, art, and role in international trade. The Phoenicians left an important mark in history with their rich heritage.

**Key word:** Phoenicia, ancient trade, navies, city-states, Tyre, Sidon, Byblos, alphabet, culture, art, economy, Buddha, purple, international relations, religion, customs, architecture, history, map, countryside economy, colonies.

**Абстрактный:** Финикийское государство, расположенное в районе древнего Средиземноморья, имело большое значение в торговле и морском судоходстве. В этой статье представлена информация об истории Финикии, городах-государствах, развитии алфавита, культуре, искусстве и роли в международной торговле. Финикийцы оставили важный след в истории своим богатым наследием.

**Ключевые слова:** Финикия, древняя торговля, флот, города-государства, Тир, Сидон, Библос, алфавит, культура, искусство, экономика, Будда, пурпур, международные отношения, религия, обычаи, архитектура, история, карта, сельская экономика, колонии.

### **Kirish**

Qadimgi Finikiya davlati, miloddan avvalgi 1200–800 yillar oraliq'ida, O'rta er dengizining sharqiy qismida, hozirgi Lubnon va Suriya hududlarida joylashgan muhim tsivilizatsiya hisoblanadi. Finikiyaliklar, o'zining dengiz savdosi, tijorat aloqlari va

madaniyati bilan mashhur bo'lib, O'rta er dengizining savdo yo'llarida asosiy rol o'ynaganlar. Ular o'zlarining ko'plab shahar-davlatlari, masalan, Tire, Sidon va Byblos bilan tanilgan. Finikiya, savdo va ijtimoiy hayotda katta yutuqlarga erishgan va o'zining me'morchiligi, san'ati va yozuvi bilan tarixda o'ziga xos iz qoldirgan.

Finikiyaliklar, o'zlarining mahalliy tili va diniy an'analariga ega bo'lib, juda ko'p xudolarga sig'inishgan. Ularning diniy hayoti, shahar-davlatlarida joylashgan ma'badlar va diniy marosimlar bilan boyitilgan. Finikiya, shuningdek, ilk marta alifbo yozuvini rivojlaningan xalq sifatida tanilgan. Bu yozuv, keyinchalik grek va lotin alifbosi uchun asos bo'lib xizmat qilgan. Finikiya alifbosi, savdo va madaniyat almashuvining rivojlanishida muhim rol o'ynadi va zamonaviy yozuvlarning shakllanishida katta ta'sir ko'rsatdi.

Finikiya, shuningdek, savdo aloqalari va kolonizatsiya orqali o'z ta'sirini tarqatgan. Ularning savdo flotlari O'rta er dengizining ko'plab mintaqalariga yetib borib, xalqaro savdo munosabatlarini rivojlaningan. Finikiya, o'zining dengiz bo'yidagi shahar-davlatlari orqali, boshqa xalqlar bilan madaniy almashuvlarni amalga oshirgan. Ular, o'zlarining mahsulotlari, xususan, purpura (qizil rang) rang ishlab chiqarish bilan mashhur bo'lgan.

Ushbu referatda, qadimgi Finikiya davlati tarixi, madaniyati, iqtisodiy rivojlanishi, shuningdek, uning xalqaro savdodagi o'rni haqida batafsil ma'lumot beriladi. Finikiyaliklarning o'ziga xosligini va ularning tarixi davomida boshqa xalqlarga ta'sirini tushunish, bugungi kunda ham muhim ahamiyatga ega. Ushbu tadqiqot, Finikiya davlatining nafaqat o'z zamonidagi, balki zamonaviy dunyoda ham ahamiyatini anglashga yordam beradi.

**Finikiya** – O'rta dengizning sharqiy sohilidagi qad. viloyat. Rivoyatlarga ko'ra, Finikiyaning aholisi Eritreya dengizi sohillaridan kelgan; ayrim finikiyalik tarixchilarining fikricha, finikiyaliklar Finikiyaning tub aholisidir. Miloddan avvalgi 5—4 ming yillikda Finikiya o'zining qulay geografik joylashuviga ko'ra, Mesopotamiya va Nil vodiysi aholisi bilan faol savdo-sotiq olib borgan. Miloddan avvalgi 2-ming yillik boshlarida quidorlik shahardavlatlari: Ugarit (RasShamra), Sidon (Sayda), Beruta (Bayrut), Arvad(Arad), Tir (Sur) va boshqa vujudga kelib, ular miloddan avvalgi 12-asrgacha Misr fir'avnlari qo'l ostida bo'lgan. Miloddan avvalgi 13-asr oxiri – 12-asrning boshida Finikiya nihoyat Misr mustamlakasidan xalos bo'lgan. Miloddan avvalgi 1ming yillikda Finikiya O'rta dengiz sohil bo'yining Markaziy va G'arbiy qismini egallab, bu yerlarga kuplab finikiyalik savdogarlar va qaroqchilar kelishi avj olgan. Tasos o.da temir rudasi konlari ochilgan, Melkart xudosi ibodatxonasi va kichik qishloq bunyod etilgan. Atlantika okeaniga tutashgan Shimoliy Afrika soxillarida, Like, Ispaniyaning jan. kismida, Gades, Malaka, Seksi, Abdera, Sitsiliyada Motiya, Panorm va Sardiyada Nora shaharlari qad. ko'targan.

Finikiyada hunarmandchilik, savdo-sotiq, kemasozlik juda taraqqiy qilgan; dengiz yo'llaridan keng foydalanilgan. Shaharlar o'rtasida hukmronlik uchun kurashlar natijasida kuchezlangan Finikiya miloddan avvalgi 8—7-asrlarda Ossuriyaga, miloddan avvalgi 6-asrda Bobilga, miloddan avvalgi 539 yildan 332 yilgacha axomaniylar davlatiga bo'ysungan.



Finikiya miloddan avvalgi 332 yildan makedoniyalik Aleksandr davlati, miloddan avvalgi 3-asr o'rtalaridan Salavkiylar davlati qo'l ostida bo'lgan. Shu vaqt dan boshlab Finikiyada ellinlashtirish jarayoni kuchaygan. O'rta dengiz bo'yidagi Delos, Afina va boshqa shaharlarda finikiyalik savdogarlarning faktoriyalari va uyushmalari paydo bo'lgan. Miloddan avvalgi 2—1-asrlarda Kiprda YunonFinikiya podsholigi vujudga kelgan. Miloddan avvalgi 63 yildan boshlab Finikiya Rimning Suriya provinsiyasi tarkibiga kirgan. Astasekin finikiyaliklar Suriyaning boshqa aholisi tarkibiga singib ketgan.

### **Finikiya madaniyati.**

Finikiya madaniyati miloddan avvalgi IV-I ming yilliklarda [Finikiya](#) va uning mustamlakalari hududida vujudga kelgan. Uning rivojiga misrliklar, shuningdek, [Ossuriya](#), [Bobil](#), [Xett](#), [Egey](#) va yunon madaniyatları katta ta'sir ko'rsatdi. Finikiyaliklarning eng katta yutuqlaridan biri miloddan avvalgi II ming yillikda bu yerda undosh harflarning kashf etilishidir. Bu kashfiyot keyinchalik barcha harf-tovush tizimidagi xatlarda ishlataladigan bo'ldi. Tarixchilarning fikriga ko'ra, Finikiya yozuvi Bibl "psevdoieroglifik" yozuv, ya'ni so'zlardan tarkib topgan xat yoki Sinay yozuvi va uning ilk Falastin variantlaridan kelib chiqqan. Finikiya adabiyotining eng qadimgi namunalari Ugarit mifologik matnlari va Finikiya podsholarining yozishmalari (Bibllik Axiram va Ieximilk, Sidonlik Eshmunazar va boshqalar) dan iborat. Finikiya adabiy va tarixiy asarlari bizgacha yetib kelmagan, lekin so'nggi (hozirgacha uning haqiqatda ham mavjudligi aniq emas) yozuvlardan biri-Sanxotiaton maktublari zamonamizgacha yetib kelgan. Rim imperiyasi hukmronligi va ellinlar davrida Finikiyada yunon tilidagi adabiyot rivoj topdi: kosmogoniya va teogoniyaga oid Menandraning tarixiy afsonalari, Diy (miloddan avvalgi II-I asrlar), Feodot (milodiy I asr), Bobillik Filon (I-II asrlar) va boshqalarning asarlari. Bu mualliflarning ishlari "Tir solnomasi" va boshqa asarlarda aks etadi. [Shimoliy Afrikada](#) rivojlangan Finikiya adabiyoti, Gannon va Gamilkon dengizchilarining Atlantika okeanidagi sayohatlari haqidagi hikoyalar va qishloq xo'jaligi ishlarini samarali yuritishga bag'ishlangan Magon asarlari bizga ma'lum.

### **Finikiyada fan va diniy qarashlar.**

Finikiya fani rivojida astronomik va geografik tadqiqotlar alohida o'rin tutgan. Finikiyaliklar antik falsafa rivojiga ham jiddiy hissa qo'shganlar. Finikiyalik faylasuf Mox atom ta'limoti asoschilaridan biri hisoblanadi. Yunonistonda Klitomax nomini olgan Diognetning o'g'li karfagenlik Gasturbal miloddan avvalgi II asrning so'nggi choragida [Afina](#) Ilmiy Akademiyasi rahbari lavozimini egallagan. Finikiyaliklar tomonidan ayni ellinlar davrida grammatik nazariya ishlab chiqilgan bo'lishi mumkin. Finikiya shaharlari qadimdan rivojlanib, ular hunarmadchilik markaziga aylangan. Finikiyaliklar ta'sirida Suriya, Falastin va Kichik Osiyo xalqlari adabiyoti va madaniyatining boshqa sohalari rivoj topgan. Bu davrda Finikiyaning madaniy ta'siri finikiya alifbosi O'rta yer dengizi davlatlarida keng tarqalganligida namoyon bo'ladi. Ushbu madaniyatga ulkan ta'sir ko'rsatgan omillar din va mifologiya bo'ldi. Lekin bu sohalar manbalar tanqisligi va finikiya xudolarining ismlarini aytish taqiqlanganligi sababli yaxshi o'rganilmagan.


### **Xudolar**

Finikiyada oliy xudoni El deb ataganlar. Buning ma'nosi xudo, uning rafiqasi Elat yoki Asherat (dengiz ruhi). Qolgan xudolar-podsholar (malk) yoki sohiblar (ball, vall), shu bilan birga, osmon xudosi-Baalshamem, quyosh xudosi (issiqlik egasi)-Baalxammon, shuningdek alohida joy, daryolar xudolari bo'lgan. Finikiya shaharlarining tanlangan xudolari bo'lgan, masalan Tirda-Melkart (shahar hokimi), Sidonda-Eshmun (tabib-davolash xudosi), Beritda-Buyuk Berit egasi, Biblda-(Finikiya umumiy xudolaridan biri) sevgi va hosildorlik xudosi Ashtarta (Astarta). Finikiyada, ayniqsa, hosildorlik xudosiga keng e'tiqod qilingan edi. Ras-Shamradan topilgan mifologik dostonlarda arpani sug'orish, tok novdalarini ekish vaqtida qilinadigan qadimgi diniy urf-odatlar ta'riflangan. Xudo Mot yoz oxirida ma'buda Anat o'roqi bilan qirqiluvchi "yetilgan boshqoq" shaklida tasvirlanadi. Qadimgi finikiyaliklarning diniy qarashlarida o'lib-qayta tiriluvchi tabiat xudosi Ball va uning o'g'li Aliyyan obrazi alohida o'rinn tutgan. Aliyyan to'g'risidagi afsona va bu xudoga e'tiqod yil fasllari almashinuvining "sirli ma'no"sin ham diniy, ham shoirona tarzda izohlab bergen. Bu diniy tasavvurlar Ras-Shamradagi qazishda topilgan mifologik dostonlarda o'z ifodasini topgan. Ball va Aliyyan haqidagi dostonda aytishicha, xudo Ball uchun hashamatli ibodatxona barpo qilinadi. Bu ibodatxonada Ball o'lim xodosi Mot (Motom) ustidan g'alaba qozonganini ma'lum qiladi. Biroq Ballga o'lim hamla qiladi va u o'g'li bilan birga narigi dunyoga rixlat qiladi. Bundan keyin, marhum xudolar sharafiga ado etiladigan motam marosimlari, hosil ma'budas (ayrim manbalarda urush xudosi) Anatning o'lim xodosi Mot bilan kurashi, o'lgan xudolarni izlash, nihoyat, Ballning Mot ustidan g'alaba qozonishi va tirilishi haqida hikoya qilinadi. Bu qadimgi afsona hamda tabiat xudosiga e'tiqod qilish keyinchalik xudo Adonisga sig'inishga asos bo'lib, so'ng bu e'tiqod Suriya va Finikiyada keng tarqaldi. Markazida mehrob joylashgan ochiq joylardagi ibodatxonalarda kohinlar jamoasi joylashib, muhim siyosiy voqealar ro'y bergen, shahar devoriga tamal toshi qo'yilgan, o'lim xavfi paydo bo'lgan hollarda taqvodor odamlar yosh farzandlarini qurban qilganlar.

### Rassomchilik

Finikiyalik rassomlar Misr, Xet-xurrit va Bobil san'ati motivlarida asarlar yaratganlar. Shu bilan birga ular o'ziga xos yo'naliislarga ega bo'lgan. Ayniqsa, o'sha davrda Finikiya hunarmandlari yasagan buyumlar yuqori baholangan. Ugaritning mashhur ikki epik asari-Keret va Danela haqidagi dostonlar-faqat diniy asar bo'lmay, balki dunyoviy ahamiyatga ega bo'lganligi ehtimoldan xoli emas. Keyingi davrlarda paydo bo'lib, ko'pincha qisqa matndan iborat bo'lgan qabrtosh yozuvlarini esa, shartli ravishda yozma asar sifatida qabul qilish mumkin.

### Yozushi



Finikiyaliklarning eng katta yutuqlaridan biri alifboning ixtiro qilinishi bo'ldi. Finikiya hattotlari misrliklar kashfiyotini mantiqiy jihatdan nihoyasiga yetkazishdi. Ma'lumki, Misrda 24 ta undosh belgidan iborat alifbo tuzilgan edi. Lekin to'liq tushuncha ifodalovchi yuzlab bo'g'in-belgi va belgilar saqlab qolangan. Olimlarning fikricha, yozuv rivojlanishining keyingi bosqichi giksos bosqinchiligi davriga to'g'ri keladi. Balki aynan ular Misr iyeroglis yozuvi asosida 26 undosh belgidan iborat va "sinay yozuvi" nomini olgan birinchi alifbo yozuvini tuzishgan bo'lsa, ajab emas. Bu yozuv Misr iyeroglis yozuvlariga borib taqaladi deb taxmin qilinadi. Giksoslar davlatining qisqa muddat hukm surganligi sababli ularning alifbosi to'liq shakllanib ulgurmasa ham, ammo u janubiy Finikiyada alifbo yozuvi paydo bo'lishiga ta'sir qilgan. Shimolda, ya'ni Ugaritda shu asosda 29 harfdan iborat va sopol taxtachalarda yozishga mo'ljallangan alifbo yozuvi yuzaga keldi. Ayrim olimlarning taxminicha, Finikiya yozuvi, umuman, Misr yozuvi emas, balki Krit-Miken yoki Finikiya bo'g'in yozuvi asosida rivojlangan bo'lishi mumkin. Bizning davrimizgacha yetib kelgan, Bibl shahridan topilgan yozma manbalar ham shundan dalolat beradi. Lekin aynan finikiyaliklar birinchi bo'lib yozuvning alifbo tizimini qo'llay boshlaganlari shak-shubhasiz. Yana shu narsa ma'lumki, bunda Misr yozuvidagi undosh harflarni ifodalagan alifbo belgilari mavjudligi katta rol o'ynagan. Misr xati esa, finikiyaliklarga avvaldan ma'lum bo'lgan. Finikiyaning turli o'lklarida yozuvga ehtiyoj sezila boshlangan. Aholining katta qismi mashg'ul bo'lgan dengizchilik va savdo munosabatlarining rivojlanishi bilan faqat ayrim hattotlar yoza oladigan yozuvni soddalashtirish zarurati yuzaga kelgan. Finikiya yozuvining kamchiliklari quydagilardan iborat bo'lgan: u faqat undosh tovushlarni ifodalar va misr yozuvi kabi matn o'qishni osonlashtiradigan qo'shimcha belgilarga ega emas edi. Shuning uchun matnlarni o'qish oson bo'lmay, murakkab matnlarni tushunish esa, yanada qiyin kechgan. Vaqt o'tib, shimoliy finikiya alifbosi 22 belgidan iborat janubiy finikiya alifbosi tomonidan siqib chiqarildi va u keyinchalik butun mamlakatda tarqaldi. Yunon alifbosi uning asosida qurilgan. Bu yunon harflarining qadimiy shakli hamda qator yunon harflari nomlarining kelib chiqishi semitcha ekanligini ko'rsatadi. Masalan "alfavit" so'zining o'zida birinchi ikki "alef" va "bet" (g'arbiy semit tilida "buqa" va "uy" ma'nosini bildiradi) Finikiya harflariga to'g'ri keladi. Bu alifbo harflari asosida qadimgi rasm-belgilar yotar edi. Aksariyat yunon harflarining nomlari Finikiya harflari nomiga to'g'ri keladi. Yunon va oromiy alifbolari ko'pgina zamonaviy alifbolar uchun asos bo'lib xizmat qilgan.

### Din.

Osmon xudosi Finikiya shaharlarida bosh tangri hisoblanib, u o'z ismi bilan emas, balki turli nomlar bilan atalgan. U oddiygina "ega" (Vaal), "shahar podshosi" (Melkart), "hokimiyat" (Molox) yoki "xudo"(El) deb atalgan.

Osmon xudosi Vaal yonida uning xotini Astorta (Ashtart, Asherat) joy egallagan. Osmon va yer tangrilari bilan birga o'lib-tiriluvchi o'simliklar xudosi ham e'zozlangan. Ko'pincha uni Adonis—"mening janobim" deb ataganlar.



Ushbu tangrining ayrim sifatlari Vaal va uning singlisi Anat (ba'zi taxminlarga ko'ra, xotini Astarta) haqidagi mifologik dostonda o'z aksini topgan. Dostonning ayrim lavhalari mazmuni Osiris va uning singlisi Isida haqidagi Misr mifologik dostoniga yaqin. O'lувчи va qayta tiriluvchi xudo e'tiqodi bilan birga diniy dramalar ham vujudga kela boshladи. Ugarit matnlaridan birini aynan shunday diniy xarakterga ega bo'lgan drama sifatida talqin qilish mumkin.

Finikiyada Falastin va Suriyadagi kabi odam qurban qilish odati uzoq saqlanib qoldi. Ko'pincha yosh bolalar, ayniqsa, yangi tug'ilgan chahaloqlar qurbanlik qilingan. Davlatga nisbatan xavf tug'ilgan paytda bu urf amalga oshirilar edi. Masalan: miloddan avvalgi IV asrda Tir yunon-makedon qo'shinlari tomonidan qamal qilingan paytda, shahar devori ustida makedoniyalik harbiy asirlar qurbanlik sifatida qatl etilgan

### Xulosa

Qadimgi Finikiya davlati, o'zining tarixiy ahamiyati, madaniyati va iqtisodiy rivojlanishi bilan O'rta er dengizi mintaqasida muhim bir o'rin egallaydi. Finikiya, o'zining savdo aloqalari, innovatsion alifbo yozuvi va madaniyati orqali boshqa xalqlarga ta'sir ko'rsatgan. Finikiya shahar-davatlari, masalan, Tire, Sidon va Byblos, o'z iqtisodiy qudrati va madaniy merosi bilan ajralib turadi. Ushbu shaharlar, dengiz savdosi va eksport qilingan mahsulotlar bilan bog'liq holda, Finikiya davlatining kuchini oshirib, uning xalqaro aloqalarini rivojlantirdi.

Finikiya alifbosi, insoniyat tarixida katta ahamiyatga ega bo'lib, kelajakdagи yozuvlar uchun asos bo'lib xizmat qilgan. Bu alifbo, savdo va madaniyat almashuvini osonlashtirib, Finikiyaliklarning boshqa xalqlar bilan aloqalarini yanada mustahkamladi. Finikiyaliklar, o'z mahsulotlarini, xususan, purpura rangli matolarini va qimmatbaho toshlarini savdoda keng qo'llagan. Ularning tijorati, ko'plab davlatlar bilan aloqalarini rivojlantirishda muhim rol o'ynadi.

Finikiya, shuningdek, tarixan boshqa xalqlar bilan madaniy almashuvlarni amalgalashirgan. Ularning san'ati, me'morchiligi va diniy an'analari, boshqa madaniyatlariga ta'sir ko'rsatdi va Finikiyaliklarning o'ziga xosligini shakllantirdi. Finikiya, O'rta er dengizidagi savdo yo'llarida muhim ko'prik vazifasini o'ynab, boshqa xalqlarning madaniyatlarini birlashtirishda katta rol o'ynadi.

Xulosa qilib aytganda, qadimgi Finikiya davlati, tarixda o'ziga xos o'rni va ahamiyatga ega bo'lgan bir tsivilizatsiya sifatida tanilgan. Finikiyaliklarning iqtisodiy va madaniy rivojlanishi, ularning boshqa xalqlar bilan aloqalarini mustahkamladi va bu jarayon zamonaviy madaniyat va iqtisodiyotga katta ta'sir ko'rsatdi. Ularning tarixi, yozuvi va savdosi, bugungi kunda ham tarixshunoslar va olimlar tomonidan o'rganilmoqda. Finikiyaliklar, o'zlarining boy merosi va madaniyati bilan, insoniyat tarixining ajralmas qismi sifatida qabul qilinadi. Ularning tarixini o'rganish, bizga nafaqat qadimgi dunyonи, balki hozirgi zamondagi madaniy va iqtisodiy aloqalarni ham tushunishga yordam beradi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. ARAB MAMLAKATLARI TARIXI. Abdullayev Nodir Abdulhayevich, Qodirov Zikrilloxon Musaxonovich, Ikromov Shavkat Iskandarovich, Bekmuradov Sanjar Tursunmamatovich, Karimov Nodir Rahmonqulovich. T. 2018.Y
- 2.V. V. Struve i D. G. Redera, M., 1963; Struve V. V.;
3. Qadimgi Sharq tarixi, T., 1956; Turayev B. A.;
- 4.Yegipetskaya literatura, t. I, M., 1920;
- 5.Matye M. E., Iskusstvo Drevnego Yegipta, M., 1958;
- 6.Vseobshaya istoriya arxitekturi, t. I, M., 1970 lnaya kultura Yegipta, v kn.;
- 7.Muzikalnaya kultura drevnego mira, |Sb. statey|, L., 1937; La u yer J. F.,
- 8.Zagadki yegipetskix piramid, per. s frans., M., 1966; Ney
- 9.Briant, P. (2002). From Cyrus to Alexander: A History of the Persian Empire.
- 10.Winona Lake: Eisenbrauns.
- 11.Pugachenkova G. A., Xalchayan, Toshkent, 1966;
- 12.Gafurov B. G., Ko'shanskaya epoxa i mirovaya sivilizatsiya, Moskva, 1968;
- 13.Staviskiy B. Ya., Ko'shanskaya Baktriya. Problemi kulturi, Moskva, 1977;
- 14.Pugachenkova G. A., Rtveladze E. V., Dalverzintepa – ku-shanskiy gorod va yuge O'zbekistova, Toshkent, 1978;
- 15.Litvinskiy B. A., Sedov A. V., Kulti i rituali ko'shanskoy Baktrii, M, 1984;
- 16.Pugachenkova G. A., Rtveladze E. V., Seervaya Baktriya – Toharistan, T., 1990;
- 17.Kultura i iskusstvo drevnego O'zbekistova [Katalog vistavki], kn. 1 i 2, M., 1991;
- 18.G'iyosov T. G., Kadimgi Hindiston tarixi, T., 2000.